



**2018 yilning yanvar – dekabr oylarida
QURILISH ISHLARI**

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi
- 8 765,1 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
- 28,0 %

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
- 52,4 %

Norasmiy sektor
ulushi – **19,6%**

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida jami 8 765,1 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,6 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 2456,5 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 28,0 %ni, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,4 %i yoki 4 589,1 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 19,6 % yoki 1 719,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,2 %ni tashkil etdi.

**Yirik pudrat
tashkilotlari**

- hajmi - **2 456,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **104,8 %**


**Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar**

- hajmi - **4 589,1 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **123,8 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **1 719,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **93,2 %**

Yanvar - dekabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 59,6 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 20,8 %ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,6 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'paydi.


Yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 17,8 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.

Mos ravishda, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 49,3 % (7,1% punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 32,9 %ni (8,1 % punktga kamayish) tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabrida faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 68,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 31,9 % (2,9 % puktga ko'payish) ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,9 % punktga kamaydi va 16,4 %ni tashkil etdi. Qolgan 83,6 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 7,9 % punktga ko'paydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 52,4% tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5% punktga ko'paydi.

Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 28,0 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 % punktga kamaydi.


Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 19,6 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi.

Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 74,1%ini tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,9 % punktga qurilish ishlari kam bajarilgan) va Mirobod (mos ravishda, 59,1 % va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 % punktga qurilish ishlari ko'p bajarilgan) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Sergeli tumanida kuzatildi – 0,8 %. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 99,2 %.


Tumanlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o'sish surati Shayxontoxur tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,5 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik korxonalar hissasiga to'g'ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 57,8 %ini tashkil qiladi.



Tuman kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)




- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sergeli
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontoxur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod

Toshkent shahrining yuqori o'sish sur'atga – 110,6 % ko'rsatkichga:

- “Yunusobod” va “Sirk’ali” metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo'lida elektro poyezdlar uchun temir yo'l qurilishi;
- Pskent tumanida GES qurilishi;
- “Angren-Pop” temir yo'l liniyalarida to'siqlar o'rnatish;
- “Milliy bog” dam olish maskanini O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi bog'iga rekonstruktsiya qilish kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd. so`m)



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

B. Shoimqulov
(0371) 230-88-18